



O'ZBEKISTONDA REAL SEKTORNING TARKIBIY TUZILMASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Maxmudov Nurali

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0009-0131-8719

nuralimahmudov32@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda real sektorning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalarining o'zgarishi, ishlab chiqarish hajmlari va samaradorlik ko'rsatkichlarining dinamikasi chuqur tahlil qilinadi. Real sektorning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalarini baholash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tarkibiy tuzilma, rivojlanish tendensiyalari, investitsion faollik, samaradorlik, mehnat unumdorligi.

СТРУКТУРНАЯ СТРУКТУРА И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА

Махмудов Нурали

Институт предпринимательства и педагогики имени Денов

Аннотация. В статье дан глубокий анализ структурной структуры и тенденций развития реального сектора экономики Узбекистана, динамики объемов производства и показателей эффективности. Даны предложения по оценке структурной структуры и тенденций развития реального сектора.

Ключевые слова: структура, тенденции развития, инвестиционная активность, эффективность, производительность труда.

STRUCTURAL STRUCTURE AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE REAL SECTOR IN UZBEKISTAN

Maxmudov Nurali

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the structural structure and development trends of the real sector in Uzbekistan, the dynamics of production volumes and efficiency indicators. Suggestions are made for assessing the structural structure and development trends of the real sector.

Keywords: structure, development trends, investment activity, efficiency, labor productivity.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va barqaror taraqqiyoti asosan real sektorning samarali faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Chunki aynan real sektor ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlari milliy mahsulot ishlab chiqarish, ish o'rinlari yaratish, aholining daromadini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda asosiy rol ni bajaradi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida real sektorni modernizatsiyalash, texnologik yangilash va tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. So'nggi yillarda esa ushbu yo'nalishda yanada faolroq harakatlar kuzatilmoqda.

Xususan, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, xomashyo bazasidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga o'tish, eksportga yo'naltirilgan klaster tizimlarini rivojlantirish orqali real sektorning ichki tarkibi o'zgarib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarning ulushi ortib bormoqda.

Shu bilan birga, real sektorning tarkibiy tuzilmasi va o'sish dinamikasini kompleks o'rganish, mavjud imkoniyat va muammolarni tahlil qilish, samarali iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda muhim metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqobatbardosh sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, hududlar ixtisoslashuvini kuchaytirish, ishlab chiqarish zanjirlarini optimallashtirish orqali real sektorni barqaror o'sish yo'liga yo'naltirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy tadqiqotlar real sektorning tarkibiy tuzilmasini hamda uning rivojlanish tendensiyalarini turli mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Bu boradagi ilmiy maqolalar, asosan, strukturaviy transformatsiyaning sabablari, uning sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi sohasiga ta'siri, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yuzaga keladigan o'zgarishlar, shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitidagi yangi ishlab chiqarish tendensiyalariga bag'ishlangan.

Avvalo, Sen (2019) tomonidan global miqyosdagi strukturaviy o'zgarishlar, ya'ni qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmatlar sohasiga o'tish jarayoni izchil tahlil qilinadi. Real sektordagi transformatsiyani iqtisodiy o'sishning ajralmas qismi sifatida ko'radi va rivojlanayotgan davlatlarda bu jarayonning notekis amalga oshishini asoslaydi.

Shunga yaqin yondashuvni Zhang (2021) tomonidan rivojlanayotgan davlatlarda, xususan, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida real sektorning sanoat tarmog'ida o'sishi xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi hisobiga qanday shakllanishini tahlil qiladi. Uning tadqiqotlari global qiymat zanjiriga qo'shilishning real sektor tuzilmasiga bo'lgan ta'sirini ochib beradi.

Lin va Xing (2020) ushbu o'zgarishlarning nazariy asosi yoritilgan. Ular endogen o'sish modellari asosida strukturaviy o'zgarishlarni tahlil qiladi va iqtisodiy siyosat, xususan, davlat investitsiyalari va infratuzilma loyihalari orqali real sektor transformatsiyasini tezlashtirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, Heinrich va boshqalar (2020) tomonidan Xitoy iqtisodiyoti misolida olib borilgan empirik tadqiqotlarda real sektorning tarkibiy o'zgarishlari mintaqaviy kesimda chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, sanoatning yuqori texnologik tarmoqlarga yo'naltirilishi va raqamlashtirish asosida tarkibiy moslashuvlar yuz berayotgani ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, Fu va hamkorlari (2021) tomonidan milliy korxonalar (MNC) ishtirokidagi sanoat rivoji muhim omil sifatida ko'rsatilib, texnologiya transferi va kadrlar tayyorlash jarayonlari orqali strukturaviy o'zgarishlarga ta'siri tahlil etilgan. Bu esa global bozor talablariga moslashuvchanlikni oshirishda real sektorga yangi turtki berishini ko'rsatadi.

Bohr va boshqalar (2024) o'z tadqiqotlarida iqtisodiy geografiya va urbanizatsiya jarayonlarining real sektor tuzilmasiga ta'sirini o'rganadi. Sanoat klasterlari va aglomeratsiya

effekti orqali mahsuldorlik oshishi, shuningdek, mehnat bozorining malaka jihatidan yangilanishi muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yuzaga kelayotgan transformatsiyalar haqida esa Devezas va boshqalar (2021) ishlab chiqarish tizimlarining raqamli modelga o'tishi natijasida mehnat unumdorligining ortishi, ishlab chiqarish tannarxining kamayishi va yangi iqtisodiy modelning shakllanishi tahlil qilinadi.

Avvalo, O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibida real sektor, ayniqsa sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hajm va salmoq jihatidan o'zgarib borayotgani kuzatiladi. To'xliyev, Xolmatov va boshqalarning (2018) "O'zbekiston iqtisodiyoti" nomli darsligida milliy iqtisodiyotning sektorial tuzilmasi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi va tarkibiy diversifikatsiyalash jarayonlari keng tahlil qilingan.

Shodmonov (2020) o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" asarida real sektorni ishlab chiqarish resurslarini eng samarali taqsimlash vositasi sifatida ko'rib, uning strukturaviy rivojlanishini bozor mexanizmlarini asoslaydi. Iqtisodiyotda resurslar oqimining sanoat, energetika, transport va logistika tizimlarida jamlanishi real sektorning markaziy rolini belgilashini ta'kidlaydi.

Ulashev va Maxmudov (2022) tomonidan chop etilgan "Makroiqtisodiyot" darsligida real sektor tarkibini belgilovchi omillar – iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining dinamikasi bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatilib, 2018–2024-yillar davomida sanoat ishlab chiqarishi o'sish sur'atlarining 5–7 foiz oralig'ida barqaror bo'lib kelgani qayd etiladi. Bu esa O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilinayotgan islohotlarning sektorlar kesimidagi ta'sirini ko'rsatadi.

Islomov va Yakubov (2019) tomonidan yaratilgan "Mintaqaviy iqtisodiyot" asarida esa real sektorning hududiy jihatdan notekis rivojlanish muammolari yoritiladi. Xususan, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati va Navoiy kabi industriallashtirilgan hududlarda sanoat sektori ustuvorligi, ayrim viloyatlarda esa agrar tuzilma ustunligi mintaqaviy ixtisoslashuvga asoslangan strukturaviy farqlarni yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda real sektorning tarkibiy tuzilmasi doimiy ravishda o'zgarib borayotganini, bu esa zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi va eksport salohiyatining ortishi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, bu tadqiqotlar real sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion infratuzilma, moliyaviy mexanizmlar va institutsional islohotlar zarurligini asoslab beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishida real sektor ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Real sektor mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM)da yuqori ulushga ega bo'lib, bandlik, eksport hajmi va byudjet tushumlarining asosiy manbai hisoblanadi (1-jadval).

1-jadvalda ushbu tarmoqlar ichida sanoat va qishloq xo'jaligi tarixiy jihatdan ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, so'nggi yillarda xizmatlar sohasi jadal rivojlanib, iqtisodiy faollikning yangi o'sish nuqtasiga aylangan.

Davlatning real sektor subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashi iqtisodiyotning asosiy sohalari, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalar, kichik va o'rta biznes birlashmalari hamda boshqa ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tashkilotlarni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan moliyaviy choralardir.

2024 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida real sektor quyidagi asosiy tarmoqlar orqali namoyon bo'ldi

Tarmoqlar	YaIMdagi ulushi (%)	Xususiyatlari
Sanoat	27–28%	Tog'-metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, avtomobilsozlik
Qishloq xo'jaligi	25–26%	Paxtachilik, bog'dorchilik, chorvachilik, issiqxona xo'jaligi
Qurilish	6–7%	Infratuzilma, uy-joy va sanoat obyektlari qurilishi
Xizmatlar sohasi	35–37%	Savdo, transport, moliya, axborot texnologiyalari

Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi 2024 yil.

Real sektor iqtisodiyotning asosiy poydevorini tashkil qiladi, chunki u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi, bandlikni ta'minlaydi, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi hamda soliq tushumlariga hissa qo'shadi. Shu sababli ham davlat ushbu sektorni qo'llab-quvvatlamasdan, barqaror iqtisodiy o'sishni amalga oshirish qiyin bo'ladi.

Davlat real sektor subyektlarini qo'llab-quvvatlashda quyidagi vazifalarni hal etishga harakat qiladi:

- korxonalar uchun moliyaviy resurslarni yetkazib berish;
- investitsiyalarni jalb qilish shart-sharoitlarini yaratish;
- soliq, byudjet va kredit mexanizmlaridan foydalangan holda subyektlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- soliq stavkalari kamaytirilishi (jumladan, daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i);
- banklardan past foiz stavkada olish imkoniyatini yaratish (foiz stavkalarini subsidiyalash);
- mikromoliya tashkilotlari orqali kichik biznesga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish.

O'zbekiston mustaqillik yillaridan boshlab real sektorni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash yo'lini tutdi. 1990-yillar oxirida qishloq xo'jaligi real sektor tarkibida yetakchi o'rin tutgan bo'lsa, so'nggi yillarda sanoat tarmog'i barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Masalan, 2010-yilda sanoat YAIM tarkibida 23,4 % ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 28,1 %ga yetgan. Aksincha, qishloq xo'jaligining ulushi asta-sekin kamayib bormoqda, bu esa strukturaviy transformatsiyaning yaqqol belgisi hisoblanadi.

Sanoat tarkibida eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlar - neft-gaz kimyosi, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika, avtomobilsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalaridir.

Xususan, 2018–2024-yillar oralig'ida elektrotexnika sanoati ishlab chiqarish hajmi 4,2 barobarga oshdi. Bu holat ichki ehtiyojni ta'minlash bilan birga, eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qurilish sohasi ham real sektorning ajralmas qismi sifatida oxirgi yillarda jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda yiliga o'rtacha 80 mingdan ortiq yangi turar joy binolari qurilib, ichki talabni qondirish va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Real sektorning rivojlanishi hududiy jihatdan notekis kechmoqda. Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon va Farg'ona viloyatlari sanoat salohiyati bo'yicha yetakchi hududlar sanaladi. Aksincha, ayrim chekka hududlarda ishlab chiqarish bazasi hali to'laonli shakllanmagan. Shu sababli, hududiy sanoat zonalari va kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali bu nomutanosiblikni bartaraf etishga harakat qilinmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning real sektor tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalari 2020-2024-yillar davomida sezilarli darajada o'zgarib, sanoat va xizmatlar sohasining ulushi ortib bordi.

Rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy diversifikatsiya, raqamlashtirish va innovatsiyaga asoslangan yangi resurs tejamkor energiya tejamkor texnologiyalar tomon yo'nalganini ko'rsatadi.

Kelgusida mazkur tendensiyalarni mustahkamlash orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bu borada quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

- innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi soliq va kredit imtiyozlari tizimini kengaytirish;

- kichik biznes va KOB'ni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari faoliyatini kuchaytirish;

- hududiy sanoat infratuzilmasini rivojlantirish;

- yashil va raqamli texnologiyalarni real sektor tarmoqlariga joriy etishni tezlashtirish.

O'zbekiston real sektori ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar tarmoqlarini o'z ichiga oladi-so'ngi yillarda keskin modernizatsiya va strukturaviy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston real sektori tarkibiy jihatdan xilma-xillashgan bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi va infratuzilma sohalarida jadal rivojlanmoqda. Asosiy e'tibor innovatsiyalar, xorijiy investitsiyalar va mintaqaviy integratsiyaga qaratilgan.

Biroq, resurslar samaradorligini oshirish, ekologik muammolar va global iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashish kelajakdagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Bohr C.E., Mestieri M., Robert-Nicoud F. (2024) *Economic Geography and Structural Change*.

Devezas T., Linstone H., Dator J. (2021) *The Economics of Digital Transformation: Approaching Non-Stable and Uncertain Digitalized Production Systems*. – Heidelberg: Springer.

Fu X., Pietrobelli C., Lee K. (2021) *Multinational Enterprises and Structural Transformation in Emerging and Developing Countries: A Survey of Literature* // *International Business Review*.

Heinrich T., Yang J., Dai S. (2020) *Levels of Structural Change: An Analysis of China's Development Push 1998–2014*.

Islomov A. va Yakubov I. (2019) *Mintaqaviy iqtisodiyot*. – T: TDIU, -256 b.

Lin J.Y.F., Xing H. (2020) *Endogenous Structural Transformation in Economic Development*.

Sen K. (2019) *Structural Transformation around the World: Patterns and Drivers* // *Asian Development Review*.

Shodmonov Sh. (2020) *Iqtisodiyot nazariyasi*. – T: TDIU, – 432 b.

Ulashev X., Mahmudov N., Shakarov A. (2022) *Makroiqtisodiyot*. – T: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, -387 b.

Zhang K. (2021) *Economic Structural Transformation in Emerging Market Countries* // *Global Journal of Emerging Market Economies*.

To'xliov N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Haqberdiev Q. (2018) *O'zbekiston iqtisodiyoti*. – T: "O'zbekiston", – 448 b.